

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

"Himoyaga tavsiya etilsin"
Pedagogika-psixologiya fakulteti
dekani_____dots.T.Rasulov
"____" _____ 2012 yil

5141000-"Boshlang`ich ta`lim va sport tarbiyaviy ish" yo'nalishi pedagogika-psixologiya fakulteti
IV kurs 403-guruh talabasi

Ibrohimova Dildora Uchqunovnaning

"Boshlang`ich sinflarda matematikada og`zaki va yozma hisoblash metodikasi"
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar R.Omonov
"____" _____ 2012 yil

QARSHI – 2012 yil

MUNDARIJA:

Kirish . ……....…3

1-bob. Boshlang`ich sinflarda og`zaki va yozma hisoblash usullari….....7

I.1. O`quvchilarda yozma hisoblash ko`nikmalarini hosil qilish.....….....7

1.2. Og`zaki hisoblash mashg`ulotlarining turlari 11

II bob. Og`zaki va yozma hisobning o`rin almashtirish, guruhlash va taqsimot qonunlari 18

2.1. Og`zaki va yozma hisobda o`rin almashtirish, guruhlash va taqsimot qonunlarini qo`llashga asoslangan usullar 18

2.2. Maktabda tez (chaqqon) og`zaki hisoblashni o`stirish mashg`ulotlarini tashkil qilish 28

2.3.Boshlang`ich sinflarda og`zaki va yozma hisoblash usullarining ahamiyati.....40

Xulosalar . . . . ……..…….……50

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati ……..…….…...52

KIRISH

Matematikaning asosiy tushunchalari natural son, arifmetik amallar, to`g`ri chiziq kesmasi, aylana kabi geometrik tushunchalar insoniyat tarixining ilk davridayoq paydo bo`lgan. Matematika fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bevosita amaliy ehtiyojdan-narsalarni sanash, xo`jalik hisob kitobi, masofalarni o`lchash, buyumlarning shaklini belgilash, quyosh va yulduzlar vaziyatiga qarab dunyo tomonlarini aniqlash kabi tirikchilik uchun zarur masalalardan kelib chiqqan. Dehqonchilik, me`morchilik inshootlari qurilishi, dengizga suzish taraqqiy etishi bilan matematik bilimlarning ahamiyati ham ortib borgan.

Matematika yoshlarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o`stiruvchi vosita sifatida maktablarda qadimgi Yunonistonda o`qitila boshlangan, sof fan tarzida ham rivojlantirilib, geometriyada aksiomatik metod ishlab chiqilgan.

Yangi era boshlarida Xitoyda sonlar nazariyasi, Hindistonda o`nli sanoq sistemasi, O`rta dengiz sohillarida trigonometriya yaratila boshlangan. VIII asrdan ilm-fan taraqqiyotining markazi O`rta Sharq mamlakatlari, xususan, O`rta Osiyoga bo`ladi. Bu davrda davlat tili bo`lgan arab tilida ijod qilgan olimlarning katta qismi bizning yurtdoshlarimiz edi: Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg`oniy, Abu-Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Ismoil Buxoriy nomlari bugun butun dunyoga ma`lum. Insoniyat taraqqiyotida muhim o`rin tutuvchi o`nli sanoq sistemasi bilan yevropaliklar asosan al-Xorazmiyning “Hind hisobi” risolasi orqali tanishganlar. Uning “Al-jabr val-muqobala” asari algebra fani sifatida shakllangan. Al-Xorazmiy ishlab chiqqan bayon usuli-lunda va izchil qoidalar olim nomi bilan “Algoritm” deb atalgan.

X-XI asrlarda Xorazmda, XIV-XV asrlarda Samarqandda mashhur ilmiy akademiyalar (“Bayt ul-hikmat”) ish olib borgan. O`rta Osiyolik olimlarning boy merosini o`rganish sohasida ham katta vazifalar turibdi.

Shatq matematiklarining ishlari XIV-XVI asrlarda yevropada ilm-fan rivojiga asos bo`ldi. Matematika tarixining keyingi davri XVIII-XIX asrlardagi texnika inqilobi bilan bevosita bog`liq. XX asr boshlarida tabiatni o`rganish sohasidagi inqilobiy o`zgarish matematikada ham o`z aksini topdi. Ayni paytda matematika yutuqlari bu o`zgarishlar uchun zamin hozirladi.

1920-yildan O`bekistonimizda matematikaning rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga keldi.

O`rta Osiyo davlat dorulfununi (Tosh.D.D) ochildi. Bu davrda mamlakatimizda avvalroq shakllangan ehtimolliklar nazariyasi maktabi (V.I.Romonovskiy, T.A.Sarimsoqov, S.H.Sirojiddinov, T.Azlarov va b). Differensial tenglamalar nazariyasi (I.S.Arjanix, M.S.Salohiddinov, N.Yu.Satimov, Sh.A.Alimov va b). Matematik analiz (T.A.Sarimsoqov, J.Hojiyev, Sh.A.Ayupov va b). Hisoblash matematikasi (V.Qobulov, F.N.Salihov,

F.B.Abutaliyev va b). Sonlar nazariyasi (N.P.Ramanov, A.F.Lavrik va b). Matematika tarixi (S.H.Sirojiddinov, G.P.Matvilvskaya va b). ilmiy maktablariga asos solindi.

Bugungi kunda matematikaning amaliy ahamiyati hech kimda shubha tug`dirmaydi. Tabiat va jamiyat hodisalarini o`rganishda benihoya imkoniyatga ega vositalardan biri-matematik modellashtirishdir. U turli jarayon bilan bog`liq noma`lumlarni topish, uning kelgusidagi tabiatni oldindan hisoblash imkonini beradi. Matematikaning bu turli tatbiqi ayniqsa tabiatni muhofaza qilish, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar bilan kurashishda muhim ahamiyatga ega.

Matematikaning bevosita amaliy tatbiqlaridan tashqari yosh avlodni har taraflama rivojlangan yetuk kishilar qilib tarbiyalashda, uning alohida o`ringa egaligini ta`kidlash zarur. Tahliliy mulohaza, mantiqiy mushohada, fazoviy tasavvur, abstrkt tafakkur inson faoliyatining barcha sohasi uchun zarur qobiliyatki, bular matematikani o`rganish jarayonida shakllanib, chuqurlashadi.

Matematikaga qiziqayotgan, uni chuqur o`zlashtirishga intiladigan o`quvchilarimiz oz emas. Vatanimizda ular etuk ilm sohiblari bo`lib yetishuvlari uchun barcha sharoit mavjud.

O`zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning “Ta`lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to`g`risida”gi farmonida va Oliy majlis tomonidan qabul qilingan “Ta`lim to`grisida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta´lim tizimini nazorat qilish va shakllantirishga katta e´tibor berilgan.

Shu e`tiborning davomi sifatida 2010-yil - “Barkamol avlod yili” deb nomlandi.

Bu hujjatlarda ko´rsatilishicha ta´lim tizimini boshlang´ich ta´lim eng asosiy, tayanch manba bo´ib hisoblanishi qayd qilingan.

“Ta`lim g´risida”gi qonunning 12-moddasida ,,Boshlang'ich ta'limning umumiy o'rta ta'lim olishi zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir”.

“Men albatta Avloniyning “tarbiya biz uchun yo hayot, yo momot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir,”- degan fikrini ko'p mulohaza qilaman.

Buyuk ma'rifatpavarlarning bu so`zlari 20-asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo`lgan bo`lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki, undan ham ko`ra muhim va dolzarbdir”.

(I.A Karimov) “Barkamol avlod orzusi” asari.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, boshlang`ich sinfda og`zaki, yozma hisoblash qobiliyatlarini o`stirish kundalik turmushda keng ravishda qo`llanadi, og`zaki hisob o`quvchilar oldiga , berilgan har bir aniq hol uchun qulay hisoblash usullarini olish zarurligini qo`yadi va shu bilan ularning zihnini ochadi. Undan tashqari, u yozma hisoblashlarni osonlashtiradi.

Og`zaki hisoblash sanoq sistemasini osonlashtiradi va amallarni bajarish usullariga asos bo`lgan xususiyatlarni yaxshiroq tushunish va o`zlashtirib olishga yordam beradi va bundan tashqari amallarni bajarish uchun odatda ishlatiladigan qoidalardan tashqari chiqishga va qisqaroq usullar ishlatishga imkon berib, o`quvchilarning kuzatuvchanlik sezgisini va ziyrakligini oshiradi.

Og`zaki hisob maktab uchun sof metodik tomondan ham ahamiyatlidir, chunki har qanday murakkab amalni tushuntirish ishini og`zaki hisob yordami bilan hammadan tezroq bajarib bo`ladi. O`qituvchi og`zaki yechiladigan yengil masala va misollardan boshlab, bolalarni murakkabroq amallarni yozma bajarishni talab qilgan masala va misollarga olib keladi.

O'qitish protsessida har xil metodlar, usullar va vositalardan foydalanib ko'p soli mashq qildirish harakatlaridagi mashqlarni bajarish bilan arifmetik amallarni jadval xollarini tezlashtirishni avtomatizmlarda (yod olishga yetkazish kerak).

Arifmetik amallarning jadval xollarini yetarlicha puxta o'zlashtirmaslik yozma hisoblash usullarini o'zlashtirishda pand berib qo'yish mumkin. Bu hisoblashlar 3 sinfda avtomatizmga o'tkazilishi kerak.

I BOB. BOSHLANG`ICH SINFLARDA OG`ZAKI VA YOZMA HISOBLASH USULLARI

I.1. O`quvchilarda yozma hisoblash ko`nikmalarini hosil qilish.

1. Arifmetik amallarni o`rganishdagi navbatdagi juda muhim masalalar og`zaki va yozma hisoblash usullaridan ongli foydalanish asosida o`quvchilarda hisoblash ko`nikmalarini shakllantirish bilan bog`liqdir.

Og`zaki hisoblashlarning asosiy ko`nikmalari I va II sinflarda shakllanadi. II sinfda "Minglik" mavzusida hisoblashlar ustida ish boshlanadi va bu ish III sinfda poyoniga yetadi. Shu bilan birga yozma hisoblashlarda og`zaki hisoblash ko`nikmalari takomillasha bordi, chunki og`zaki hisoblashlar yozma hisoblash jarayoniga tarkibiy eliment sifatida kiradi.

Og`zaki hisoblash ko`nikmalariga ega bo`lish yozma hisoblashlarni ko`proq muvaffaqiyatli bajarishni ta`minlaydi.

Og`zaki hisoblash usullari ham yozma hisoblash usullari ham, yuqorida ta`kidlanganidek, amallar hisoblari va ulardan kelib chiqadigan natijalarni amallar komponentlari bilan natijalari orasidagi bog`lanishlari belganlikka asoslanadi.

Ammo og`zaki va yozma hisoblash usullarining farq qiluvchi xossalari ham bor.

Og`zaki hisoblash xossalari:

1) Hisoblashlar yozuvlarsiz (ya`ni miyada bajariladi) yoki yozuvlar bilan tushuntirib berilishi mumkin: Bunda yechimlarni:

a) tushuntirishlarni tula yozish bilan (ya`ni hisoblash usulini dastlabki mustahkamlash bosqichida) berish mumkin.

Masalan:

23+4=(20+3)+4=20+(3+4)=27

9+3=9+(1+2)=(9+1)+2=12

b) berilganlarni va natijani yozish mumkin. Masalan:

23+4=27

9+3=12

v) hisoblash natijalarini nomerlab yozish mumkin (bunda tekshirish osonlashadi).

Masalan:

1) 27

2) 12 va hakozo.

2. Hisoblashlar yuqori xona birliklaridan boshlab bajariladi.

Masalan:

430-210=(400+30)-(200+10)=

=(400-200)+(30-10)=200+20=220

3. Oraliq natijalar xotirada saqlanadi.

4. Hisoblashlar har xil usullar bilan bajarilishi mumkin.

Masalan:

a) 26x12=(10+2)=26x10+26x2=260+52=312

b) 26x12=(20+6)x12=20x12+6x12=240+72=312

v) 26x12=26x(3x4)=(26x3)x4=78x4=312

5. Amallar 10va 100 yengilroq hollarda 1000 ichida va ko`p xonali sonlar ichida hisoblashlarning og`zaki usullaridan foydalanadi. Masalan:

54024:6=9004

Yozma hisoblash xossalari

1. Hisoblashlar yozma bajariladi. Yozma hisoblashlarda yechimini yozish ustun qilib bajariladi.

Masalan:

$$\begin{array}{r} 276 \\ +\ 432 \\ \hline 708 \end{array}$$

2. Hisoblashlar quyi xona birliklari dan boshlanadi. (yozma bo’lish binodan mustasno)

Masalan:

$$\begin{array}{r} 749 \\ -\ 315 \\ \hline 434 \end{array}$$

3. Oraliq natijalar darhol yoziladi.
4. Hisoblashlar o’rnatilgan qoidalar bo’yicha, shu bilan birga bitta yagona usul bilan bajariladi.

Masalan:

$$\begin{array}{r} 346 \\ \times\ \ 14 \\ \hline 1384 \\ +\ 346 \\ \hline 4844 \end{array}$$

5. 1000 ichida va ko’p xonali sonlar ustida amallar hisoblashlarning yozma usullaridan foydalanib bajariladi:

Masalan:



Ba’zi misollarni og’zaki ham, yozma ham yechish mumkin.

Bu hollarda o’quvchilar yechimlarni taqqoslab, arifmetik amallarning mazmunini va sonlar ustida bajarilayotgan amallar mazmunini yaxshi tushunib oladilar.

O’qitish prosessida har xil metodlar, usullar va vositalardan foydalanib ko’p sonda mashq qildirish xarakteridagi mashqlarni bajarish bilan arifmetik amallarni jadval hollarini o`zlashtirishni avtomotizmga (yod olishga) yetkazishi kerak.

Arifmetik amallarning jadval hollarini yetarlicha puxta o`zlashtirmaslik yozma hisoblash usullarini o`zlashtirishda pand berib qo`yishi mumkin, bu hisoblashlar ham III sinfda avtomatizmga yetkazilishi kerak.

I.2. Og`zaki hisoblash mashg`ulotlarining turlari.

Og`zaki hisobni ikki turga bo`lish mumkin. Birinchi turdagi hisob. Bunda hisoblovchi hech narsa yozmaydi va hech bir qurol yoki asbobdan foydalanmaydi – berilgan sonlarni eshitish bilan zehnga oladi:

Bu sof eshitish mashqidir. Ikkinchi turi – jadvallar yordami bilan og`zaki hisob. Bunda berilgan sonlar eshitish va ko`rish bilan yoki faqat ko`rish bilan zehnga olinadi. Bu hildagi og`zaki hisobga yozuv plakatlar, sanoq figuralari, jadvallar va boshqa ko`rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bu – ko`rish – eshitish mashqlaridir.

Maktabda o`qitishning dastlabki bir yarim yilida amallar kichik sonlar ustida bajarilganda va qo`shish bilan ayirish jadvallari faqat o`zlashtirilib borayotgan paytda, o`quvchilar hisoblashning og`zaki usullardan foydalanadilar.

Ikkinchi o`quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab, 1000 ni o`rganishga o`tish bilan hisobning asosiy formasi yozma nisoblash bo`ladi. Shu bilan birda o`quvchilarni og`zaki hisoblashning har xil usullari bilan tanishtirish va tez ogzaki hisob malakalari yaratish ishlari arifmetika kursining oxirigacha da`vom ettirishishi kerak bunda 100 ichidagi va katta sonlar

bilan hisoblashni 100 ichidagi hisoblashga keltirish mumkun bo`lgan hollarda og`zaki tez hisoblash malakalarini yaratishga ko`proq e`tibor berish lozim.

Masalan 120x3=12x10x3=36x10=360

480:6=48x10:6=8x10=80

25000+36000=25x1000+36x1000=61000

O`qituvchi birinchi o`quv yili boshida og`zaki hisoblashdan sof eshitish mashqlarini olib boradi. O`quvchilar yozma nomerlash va amallarning ishoralarini tanishganlardan keyingina asta-sekin ko`rish-eshitish bilan og`zaki hisob va yarim yozma hisoblashlarga o`tiladi.

Boshlang`ich maktab II sinfining ikkinchi yarmida hamda III va IV sinflarda asosan og`zaki hisobni ko`rish-eshitish mashqlari ustida olib boriladi. Bu sinflarda masalalarni og`zaki yechish va tez hisoblash mashqlariga har kuni 5-7 minut vaqt berish lozim. Bundan ortiq vaqt berish ma`qul emas, chunki og`zaki hisoblashda bolalar (intensivroq) butun kuchlarini berib ishlaydilar va shunga ko`ra ortiq darajada charchab qolishlari ehtimol. Og`zaki hisobni qancha vaqt davom qildirish kerakligini ko`pincha o`qituvchi o`zi aniqlaydi, chunki og`zaki hisobga beriladigan vaqt ko`p sabablarga, masalan: o`quvchilarning aktivligiga, ularning tayyorgarligiga, materiallarning sifatiga va boshqalarga bog`liqdir.

Yuqorida ko`rsatilgan 5-7 minutlik og`zaki hisobni darsning qaysi paytida o`tkazish kerak degan so`roqqa javob berishimiz lozim.

Juda ko`p maktablarning tajribasida bu ishni darsning boshida, uy ishlarini tekshirishning ketidanoq qo`yadilar. Buni shablon qilib yuborish yaramaydi, og`zaki hisobni darsning o`rtasida ham, masalan yangi chiqarilgan qoidani o`qituvchining rahbarligi ostida misol va masalalar yechish bilan mustahkamlash uchun mustaqil ishga kirishish oldindan ham quyi mumkin; masalalar ko`proq yechiladigan darslarda o`qituvchi o`quvchilarning charchaganini sezib qolsa, o`sha paytda og`zaki hisob beriladi. Og`zaki hisob ishni turlantiradi, jonlantiradi, sinfni “silkitib” yuboradi.

Og`zaki hisob ko`p turli bo`ladi. Biz ularning hammasi ustida to`xtalib tura olmaymiz, bu mumkin ham emas, chunki ilg`or o`qituvchilarimiz bir joyda turib qolmaydilar. Ijodkor o`qituvchi og`zaki hisobning yangi turlarini ijod qilib turadilar. Albatta, og`zaki hisobning ba`zi bir turlarini ommaviy maktablarga tavsiya qilishdan oldin, ularni tekshirib chiqish kerak bo`ladi. Biz og`zaki hisobning ishlatiladigan turlariga to`xtalib o`tamiz.

Bunda shuni qayd etib o`tish kerakki, albatta bu turlarni tugal ishlanib chiqqan deb bo`lmaydi.

III va IV sinflarda olib boriladigan ishitish va ko`rish sezgilariga asoslangan mashqlarning turlari juda ko`pdir. Biz bularning ba`zi birlarigagina to`xtalib o`tamiz.

1) Doskaga misollar yozish. O`qituvchi doskaga bir qator sonlar yozadi, keyin ularni ko`rsatgich bilan ko`rsatadi, o`quvchilar og`zaki ravishda hisoblab boradilar va o`qituvchining chaqirishi bilan javob beradilar. Bu usul katta sonlar ustidagi mashqlarda, og`zaki hisobning xususiy yo`llarida va tartibga solingan (murakkab) masalalarni yechishda ishlatiladi.

2) Plakatlar,sanoq figuralari va jadballari.

a) martel "hisob siferblati"

b) shjxor – Troskiy jadvali

c) eminov jadvali

d) eyker qatorlari

e) "hisob darajalari"

f) "hisob feguralri"

g) Qiziqarli rvdratlar

O`qituvchi shu ko`rsatilgan qo`rollardan birontasi doskaga osadi; ko`satkich bilan sonlarni ko`rsatadi va hisoblashni taklif qiladi. O`qituvchilar ichlarida hisoblab oladi qo`llariniko`taradilar.

Eshitish mashqkarining turlari;

1) bir amalli misollar

2) 2,3,4,5, bo`inli misollar

3) topishmoq masala

4) tartibga solingan ko`rinishdagi masala

Ko`rish ishitish mashqlari ham, shuningdek eshitish mashqlari ham bunday shakllarda ham berilishi mumkun:

a) misollar

b) kankret mazmunin bo`lmagan masalalar

c) kankret mazmunli masalalar

kankret mazmuni bo`magan masalalarning bir qismini ko`rib chiqamiz.

Bu masalalar o`zlarining tuzilishi jihatidan hamma sinflar uchun juda ko`p turli bo`lishlari mumkun. Ulardan ba`zilariga to`xtalamiz.

I. Qo`shishga doir masalalar

1) 18 ga 98 qo`shilsa, qancha bo`ladi?

2) 12 bilan 76 qo`shilsa, qancha bo`ladi?

3) 58 ni 2 ta orttiring

4) 49 dan 3 ta ortiq sonni toping?

5) Qaysi biri katta: 28 va 31 yig`indisimi yoki 42 bilan 17 yig`indisimi?

6) Men bir son o`yladim, undan 75 ni oldim, 28 qoldi, men uylagan son qaysi?

Qanday sonni 13 ta kamaytirsa, 57 chiqadi?

7) Qanday sonni 13 ta kamaytirilsa 57 chiqadi?

8) 92 hosil qilish uchun qaysi sondan 18 ni olish kerak?

9) Qaysi sonni 47 ta kamaytirilsa, 53 chiqadi?

10) Ayiriluvchi 42 va ayirma 378 bo`yicha, kamayuvchi topilsin

11) Agar qo`shiluvchilardan biri 174 ta, ikkinchisi 288 ta orttirilsa ( kamaytirilsa ), yig`indi qanday o`zgaradi? Agar kamaytiruvchini 147 kamay (orttirib), ayiruvchi 163 orttirilsa (kamaytirilsa), ayirma nima qiladi?

12) 25 dan kichik bo`lgan qanday ikki sondan 40 ni tuzib bo`ladi?

II. Ayirishga doir savollar:

1) 12 ta kam 47 qanchaga teng?

2) 52 minus 18 chi?

3) 310 dan 118 ta kam sonni ayting.

4) 158 hosil qilish uchun 372 ni nima qilish kerak?

5) Qanday ikkita (uchta) qo`shiluvchidan 100 ni hosil qilish mumkin?

6) 137 ni 200 ga, 1000 ga to`ldiruvchi sonlarni ayting?

7) 72 ni 7 ta birlik kamaytiring.

8) 40 hosil qilish uchun 26 ga qaysi sonni qo`shish kerak?

9) 65 hosil qilish uchun 73 dan qanchani olish kerak.

10) Men bir son o`yladim, unga 60 ni qo`shdim, 100 hosil bo`ldi. Men qanday son o`ylaganman?

11) Men bir son o`yladim, uni 69 ta orttirdim (kamaytirdim), 90 hosil bo`ldi. Men qanday son o`ylaganman?

12) Agar o`ylagan sonimni 100 dan olsam, 73 qoladi. Men o`ylagan son qaysi?

13) 75 soni 37 dan qancha ortiq?

14) 794 hosil qilish uchun 901 dan qanchani olish kerak?

15) 188 hosil qilish uchun 547 ni qanday o`zgartirish kerak?

16) Ikki qo`shiluvchining yig`indisi -596. qo`shiluvchilardan biri 377. ikkinchisini toping.

17) Kamayuvchi 153 va ayirma 47, ayriluvchi topilsin.

18) Agar kamayuvchiga 402, ayriluvchiga esa 283 qo`shilsa, ayirma qanday o`zgaradi?

19) Agar kamayuvchi va ayriluvchidan 156 tadan olinsa, ayirma qanday o`zgaradi?

III. Ko`paytirish va bo`lishga doir masalalar.

1) men bir son o`yladim, uni 8 marta orttirdim (kamaytirdim), 72 hosil bo`ldi. Men qanday son o`ylaganman?
2) 84 hosil qilish uchun qanday sonni 6 ga ko`paytirish (bo`lish) kerak.
3) 60 dan 4 marta katta (kichik) sonni aytib bering.
4) Bir sonni 8 ta teng bo`lakka bo`lindi va har bir bo`lagida 11 hosil qilindi. Qanday sonni bo`lingan?
5) Qanday ikkita (uchta) ko`paytuvchidan 72 hosil qilish mumkin?
6) 60 sonni 20dan kichik sonlardan qaysilariga qoldiqsiz bo`linadi?
7) 144 hosil qilish uchun bir-biriga teng bo`lgan qanday ikki sonni ko`paytirish kerak?
8) 68 hosil qilish uchun 17 talab necha marta olish kerak?
9) Ko`paytuvchini 27 marta, ko`paytiruvchini esa 9 marta orttirilsa, ko`paytma qanday o`zgaradi?
10) Agar ko`payuvchini 18 marta orttirib ko`payuvchini 180 marta kamaytirilsa, ko`paytma nima qiladi?
11) Bo`linuvchini 54 marta orttirib, bo`luvchini 9 marta kamaytirilsa, bo`linma qanday o`zgaradi?
12) Agar bo`linuvchi 5 marta, bo`luvchi esa 105 marta orttirilsa, bo`linma nima qiladi?
13) 125 qanday sonning 6 dan bir qismini tashkil etadi?
14) Ko`paytma 175, ko`paytuvchilardan biri 25 bo`lsa, ikkinchi ko`paytiriluvchi topilsin.

IV. Hamma amallarga doir.

1) Agar 15 ga 21 qo`shilsa , hosil bo`lgan son o`ylangan sondan 9 marta katta bo`ladi. Qanday son o`yladim?
2) Agar 40 ni 8 ga bo`linsa, hosil bo`lgan son o`ylangan sondan 10 marta kichik bo`ladi. Men qanday son o`ylaganman?
3) Men bir son o`yladim, uni 7 marta ortirdim, hosil bo`lgan songa 8 ni qo`shdim va natija 50 bo`ladi. Men qanday son o`yladim?
4) 42 ning ichida 8 necha marta bor va qancha qoldiq chiqadi?
5) Qanday sonni 7 ga bo`lganda, bo`linmada 6 chiqib, 3 ta ortib qoladi?
6) Agar bo`linuvchi 280, bo`linma 25 va qoldiq 5 bo`lsa, bo`luvchi qancha bo`ladi?
7) Qaysi biri katta va qancha katta: 72 bilan 18 mm yoki 12 ta kam 100 mm?
8) Eng kichik ikki xonali sonni, eng katta uch xonalai sonni, eng kichik uch xonali sondan 2 marta katta sonni, eng katta ikki xonali sondan ikkita katta (kichik) sonni aytib bering.
9) 4 ga bo`linadigan 30 dan katta va 60 dan kichik hamma sonlarni aytib bering.

O`qituvchining o`zi savollarga ko`p turlilik kirgizishi kerak, chunki ular darsni jonlantiradi, diqqatni tarbiyalaydi, zehnni ochadi va masalalar yechishga yaxshi tayyorgarlik bo`ladi.

Boshlang`ich maktab matematika dasturida aytilgan: “Og`zaki hisob mashg`ulotlarini o`tkazishda og`zaki hisoblashlarning faqat soddalashtirilgan usullari bilan cheklanib qolish kerak emas, balki o`quvchilarni og`zaki hisoblashning umumiy usullari ustida ham mumkin qadar ko`p mashq qilish lozim”.

Darsda ajratilgan 5-7 minut davomida o`tkaziladigan og`zaki hisobdan tashqari, yozma hisoblashda ham zehnda bajarish oson bo`lgan hisoblashlarning hammasi og`zaki ishlanishi kerak.

Masalan, ikki xonali songa bo`lishda bo`luvchini bo`linmaning har bir xonasiga ko`paytirishdan chiqqan ko`paytmalarni ayirish amallari og`zaki bajariladi.

II BOB. OG`ZAKI VA YOZMA HISOBNING O`RIN ALMASHTIRISH, GURUHLASH VA TAQSIMOT QONUNLARI

2.1. Og`zaki va yozma hisobda o`rin almashtirish, guruhlash va taqsimot qonunlarini qo`llashga asoslangan usullar

Og`zaki va yozma hisobning o`rin almashtirish, guruhlash va taqsimot qonunlarini qo`llash usullari.

Boshlang`ich maktabning matematika dasturiga kiritilgan nazariy masalalarning ichida arifmetik amallarning qonunlari to`g`risidagi masala ham bor. Dasturga bu qonunlardan faqat ko`paytirishning o`rin almashtirish xossasi kiritilgan.

IV sinflarda o`qish yilining I choragida o`qitiladi. Yig`indi va ko`paytmaning guruhlash va taqsimot qonunlari esa dasturga to`g`ridan-to`g`ri kirgizilmagan, lekin ular to`g`risida faqat IV sinfning 2-choragida bu xossalarga taaluqli ko`rsatma bor.

Ko`paytmani bir songa va aksincha, bir sonni ko`paytmaga ko`paytirish. Bu qonunlar IV sinf o`quvchilariga eng sodda (elimentar) shaklda, (konkret) aniq material ustida, induksiya metodi bilan berilishi kerak. O`qituvchi ttegishli ravishda sonli misollarni tanlab oladi, ularning har birini o`quivchilar bilan sinfda tekshirib chiqadi, ayrim misollarni tekshirishdan xususiy xulosalar chiqariladi, xususiy xulosalar esa qonunning umumiy shaklini chiqarish bilan tamomlanadi, bu tekshirilgan xususiy hollarni umumlashtirishdan iborat bo`ladi. Bu xulosa muvofiq ravishda tanlab olingan misol va masalalarni yechish bilan mustahkamlanadi.

Buni misollarda ko`rib chiqamiz.

Ko`paytirishning o`rin almashtirish qonuni. Kvadratlarga bo`lingan to`g`ri to`rtburchakdan ko`rgazmali qurol sifatida foydalanamiz.

8x3=3x8 ni tekshiramiz. 8x3 qancha bo`yi-8, eni 3 katakcha bo`lganto`g`ri to`rtburchak chizamiz.

Sanang-chi nechta kvadrat bo`ldi -24 ta.

Endi yana shunday usul bilan, 3 ni 8 ga ko`paytirishdan qancha chiqqanini topamiz. 3x8=24

Buni quyidagicha yozamiz:

8x3=3x8

Yozuvning o`ng tomoni chap tomondan nima bilan farq qiladi:

8 va 3 ko`paytuvchilarning joylari almashtirilgan. Buni 6x4 va 5x3 misollar ustida tekshirib ko`ring.

“Ko`paytuvchilarning o`rinlarini almashtirish ” bilan ko`paytma o`zgarmaydi degan umumlashtiruvchi xulosa chiqaradi.

O`quvchilarni yig`indining o`rin almashtirish xossasi bilan ham shu usulda tanishtirish mumkun. Bunda ko`rgazmali qo`rol sifatida sanoq materiallarining istalganini ishlatish mumkun. Masalan. 6+4=4+6 xossasini chiqarishda 6-kubik va ularning yoniga yana 4-kubik qo`yib sanashni taklif qilish kifoya; bundan keyin bolalar ikkinch amalni (4+6) bajaradilar:
4-kubikka 6-kubikni qo`shadilar: va

6+4=4+6

shaklda yozib qo`yadilar va ikki sonni qo`shishda ularning urinlarini almashtirish mumkun degan xulosa chiqoradilar, so`ngra, ko`paytiriahning o`rin almashtirish xossasiga nisbatan ko`satilgani kabi, umumlashtiruvchi xulosa chiqoradilar.

1. Sonlarni qo`shiluvchilarning o`rinlarini qlmashtirish bilan qo`shish.

Agar qo`shiluvchilarning ikkitadan ortiq bo`sa, ularning urinlarini almashtirib qo`shish ba`zan ishni juda osonlashtiradi:
Masalan,

86+57+14=(86+14)+57

Bu yerda ikkinchi qo`shiluvchi birinchi qo`shiluvchini yuzga tuldiradi, ikkinchi qo`shiluvchini yuzga qo`shish esa juda oson.

2. Qo`shiluvchilardan birini yaxlitlash.

Qo`shiluvchilardan biri xona soniga yaqin bo`lgan holda, uni o`ziga yaqin xona soni bilan almashtirish vaqo`shishdan chiqqan natijaga kerakli tuzatmani kiritish qo`layroq bo`ladi.

203+56=(200+56)+3=259
97+68=(100+68)-3=165

3. Kamayuvchi yoki ayiriluvchini yaxlitlash bilan ayirish.

Berilgan sonlardan birini yaxlitlash og`zaki ayirishning asosiy usulidir, bu amalda yaxlitlash usullari qo`shishdagiga qaraganda birmuncha og`irroq qo`shishda istalgan qo`shiluvchini yaxlitlash mumkun edi va qo`shiluvchi qanchaga o`zgarsa, yig`indi ham shuncha o`zgaradi. Demak, yaxlitlaganimizda qo`shiluvchi ortgan bo`lsa, yig`indidan tuzatmani olish, qo`shiluvchi kamaygan vaqtda tuzatmani yig`ndiga qo`shish kerak bo`ladi.

Kamayuvchini yaxlitlaganimizda ham shu holni ko`ramiz; agar kamayuvchi yaxlitlaganimizda, biz uni orttirga bo`sak, tuzatmani ayirmadan olinadi; agar uni kamaytirgan bo`lsak, tuzanmani ayirmaga qo`shiladi.

Masalan.

798- 240=(800-240)-2=558

603-325=(600-325)+3=277

Ayiruvchini yaxlitlaganimizda boshqa holni ko`ramiz. Ma`lumki, ayiriluvchining ortishi bilan ayirma kamayadi. Demak, ayiriluvchi ortganda tuzatmani olish kerak bo`ladi.

Masalan.

783-598=(783-600)+2=185

945-504=(945-500)-4=441

Istagan sondan ma`lum bir xona sonini ayirish ancha yingil bo`lgani uchun, har qachon ayiruvchini yaxlitlash o`ng`ayli bo`ladi.

Kamayuvchini yaxlitlash bilan faqat o`quvchilarga xona sonidan istagan sonni ayirish malakalari bo`lgandagina maqsadga erishiladi.

4. 9 ga 99 ga va hokozoga ko`paytirish.

Berilgan sonni 9 ga ko`paytirish uchun, o`n marta orttirilgan ko`payuvchidan shu ko`payuvchini ayirish kerak.

Masalan.

37x=37x10-37=333

Ko`payuvchini bitta birlik orttirishimiz bilan biz ko`paytmani “bitta” ko`payuvchi qadar orttirgan bo`lamiz, shu sababdan uni hosil bo`lgan ko`paytmadan to`zatma sifatida olish kerak bo`ladi:

Shu asoslarga ko`ra 99ga ko`paytirish ham 100 ga ko`paytirish va ko`paytmadan ko`payuvchini ayirishdan iborat bo`ladi.

Masalan.

12x99=12x100-12=1188

999 ga 9999 ga va umuman har bir xonaning 9 ta birlikdan iborat bo`lgan songa ko`paytirish ham shu holda bajariladi.

Masalan.

85x999=85x1000-85=84915

5. 5ga 50 ga 500 ga va hokozoga ko`paytirish.

Birinta sonni 5 ga ko`paytirish o`rniga, uni 10 ga ko`paytirib, chiqqan ko`paytmani ikkiga bo`lish mumkun. Agar ko`payuvchi jo`ft son bo`lsa, ko`paytmani emas, balki kop`ayuvchini ikkiga va undan keyin 10 ga ko`paytirish yana ham oson bo`ladi:

Masalan.

68x5=(68:2)x10=340

50 ga ko`paytirish 100 ga ko`paytirib 2 ga bo`lib yoki 2 ga bo`lib (agar ko`payuvchi juft son bo`lsa), keyin 100 ga ko`paytirish bikan almashtiriladi.

Masalan:

76x50=(76;2)x100=3800

35x500=35x1000:2=35000:2=17500

236x500=(236:2)x1000=118000

6. 25 ga, 75 ga, 125 ga, 35ga ko`paytirish.

a) agar bironta son 100ga ko`paytirilib, chiqqan ko`paytma 4 ga bo`linsa, u son 25 ga ko`paytirilgan bo`ladi. Ayrim hollarda katta sonni 4 ga bo`lishning qiyinchiligidan qochish uchun, ko`payuvchi 4 ga bo`linadi (agar bo`linsa) va undan chiqqan bo`linmani 100 ga ko`paytiriladi.

Masalan:

68x25=(68:4)x100=1700

17x25=(17x100):4=1700:4=425

b) bironta sonni 7 ga ko`paytmasi shu sonning 25 ga ko`paytmasining uch baravariga teng. Demak, berilgan bironta sonni 75 ga ko`paytirish uchun, uni 25 ga ko`paytirib, chiqqan ko`paytmani uch marta olish kerak.

Masalan:

48x75=(48:4)x3x100=3600

64x75=(64:4)x3x100=16x3x100=4800

Yuqorida keltirilgan usul bilan 4 ga bo`linadigan sonlarni 25 ga va 75 ga ko`paytirish oson.

v) birorta sonning 125 ga ko`paytmasi shu sonning 100 ga va 25 ga ko`paytmalari yig`indisidir.

(Taqsimot qonuni)

Masalan:

(32x125=(32x100)+(32:4))x100=400

8 ga bo`linadigan sonni 125 ga boshqa usul ko`paytirish mumkin: dastlab son 8ga bo`linadi, keyin 1000 ga kamaytiriladi.

Masalan:

72x125=(72:8)x1000=9000

g) bironta sonnig 35 ga ko`paytmasi shu sonnig 25 ga va 10 ga ko`paytmalari yig`indisidir.

Masalan:

84x35=(84:4)x100+84x10=2940

7. Ketma-ket ko`paytirish va bo`lish.

a) ba`zi bir sonlar ko`paytirish amalini 2 va xattoki 3 bo`lib ko`paytirib chiqishga imkon beradi.

Masalan:

46x18=46x2x9

46x2=92

92x9=92x10-92=828

46x2x9=828

Ko`paytuvchi bo`lgan 18 soni 2-bilan 9 ning ko`paytmasidir. Shu sababdan dastlab 46 ni 2ga vaundan hosil bo`lgan natijani 9 ga ko`paytiriladi;yoki 45 soni bilan 9 ning ko`paytmasi bo`lgani uchun:

68x45=68x5x9 ya`ni

68x5=(68:2)x10=340

340x9=340x10-340=3060

b) ketma-ket bo`lish asosan bo`luvchi 2 xonali va ko`p xonali son bo`lgan hollarda qo`llaniladi,ammo bo`luvchi soddaroq bo`gan holda ham undan foydalanish imkoni yuqolmaydi;

Masalan:

224:8[(224:2):2]:2=28

Bu ularning mohiyati shundan iboratki, bo`luvchini ko`paytuvchilarga ajratiladi, so`ngra bo`linuvchi shu ko`paytuvchilarga ajratiladi, so`ngra bo`linuvchi shu ko`paytuvchilarning birinchisiga, chiqqan bo`linma ikkinchisiga bo`linadi va hokozo. Bo`luvchini ko`paytuvchilarga shunday ajratish kerakki, buning natijasida bo`lish prosessi haqiqatdan yengillashadigan bo`lsin.

Ko`pgina maktablarda og`zaki hisob darsining boshida uy vazifasini tekshirgandan keyin o`tkazadi. Buni maqullash mumkun, lekin doim shunday qilish yaramaydi.

Og`zaki hisobni darsning o`rtasida, masalan, yangi qoidani chiqorgandan kiyen, uni o`qituvchining rahbarligi ostida misol va masalalar yechib mustahkamlash vaqtida o`tkazish ham mumkun.

Masalan:

4) aylanma misollar.

1) o`qituvchi 14x5 misolini beradi.

O`quvchi javobni aytmaydi, balki shu javob birinchi bo`lib keladigan yangi bir misol o`ylab aytadi.

Ikkinchi o`uvchi yana yangi misol topadi, bu misolda esa, ikkinchi javob birinchi son bo`lib keladi.

Masalan:

O`qituvchi: 14x5=70

1- o`quvchi: 70:2=35

2- o`quvchi: 35:5=7 va hokozo

5) O`langan sonni topish men ikkita son o`yladim; agar birinchisiga ikkinchisi qo`shilsa, 15 chiqadi. Men qanday son o`yladim?

Bolalar yig`indisi 15 ga tengbo`ladigan hamma kambinasiyalarini qiladilar.

Mumkun bo`gan kambinasiyalarning eng keyingisi aytilganda o`qituvchi aytadi.

“To`g`ri” men 11+4=15 sonni o`ylagan edim deydi.

Og`zaki hisob darsi qiziqarli bo`lishi, bolalarning diqqatini va aktivligini uyg`otadigan bo`lishi uchun, ularni mumkun qadar turli tuman qilish kerak.

Masalan ularni qo`ydagicha nomlash mumkun.

1.Tez hisob

2.Teng hisob

3.Toping

4.Aylanma misollar.

5.O`langan sonni topish.

6.Zinapoya.

7.Qaytma hisob.

8.Zanjirband hisob.

9.To`ldirish usuli.

10. Berilgan misolga masala o`ylab topish.

11.Sodda masalalarni og`zaki yechish.

12.Kvadratlarni to`ldirish.

13.Jadval bo`yicha hisoblash.

14.Doiradagi amalni bajarish va hakozo.

6. Zinapoya

O‘qituvchi doskaga zinapoya rasmini chizadi va unga pastdan yuqori tomonga qiyinligi ortib boradigan tartibda sonlar yozadi,

Masalan:



O‘qituvchi: – Bolalar, kim birinchi zinaga chiqadi?

Juda ko‘p bolalar qo‘l ko‘tarishadi. O‘qituvchi bir o‘quvchidan so‘raydi:

– Ikkinchi zinaga kim chiqadi?

Yana bir o‘quvchidan so‘raydi va hokazo.

Oxirgi zinaga yetib borgan o‘quvchini o‘qituvchi g‘olib deb hisoblaydi va baho bilan rag‘batlantiradi.

8. Zanjirband hisob

O`qituvchi doskaga o`zun bir misolni, har bir yangi amal oldida sal to`xtab yozadi:

(5x7+46):9x7=

O`qituvchi tenglik ishorasi qo`ygan vaqtda o`quvchilarning ko`pchilida javob tayyor bo`lishi kerak.

9. To`dirish usuli.

O`quvchi doskaga 100 sonini qo`yadi va bundan keyin birin ketin bir necha sonni aytadi o`quvchilar 100 ga to`ldiruvchi sonlarni aytib berishlari kerak.

12. Kvadratni to`ldirish.

Kvadrat ichidagi va u kataklarga bo`linadi. Bir qator sonlar beriladi.

Masakan:

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, bu sonlar kvadratning kataklariga bittadan shunday joylashtirish kerakki, ham garezantal ,ham vertikal qatorlardagi sonlarning 15- bo`lsin.

2	9	4
7	5	3
6	1	8

14. O`qituvchi doskaga doir chizib ichiga son bilan amal ishorasi, tashqarisiga esa sonlar yozadi.



Chizg‘ich bilan har qaysi sonni ko‘rsatadi, bolalar esa ko‘rsatilgan amalni yoddan bajaradilar.

O‘qituvchi tomonidan boshqa jadvallar bo‘yicha ham tez hisobni amalga oshirish mumkin.

Tez hisobla

$$(3+4-5)\cdot 2+8=$$
$$(7\cdot 6-2):4+9=$$
$$(12+44):7+25=$$
$$460-80+13-26=$$

2.2. Maktabda tez (chaqqon) og`zaki hisoblashni o`stirish mashg`ulotlarini tashkil qilish.

Og`zaki hisob mashg`ulotida o`qituvchi stol, partalar ustidan hamma narsani olib qo`yishni taklif qiladi. Og`zaki hisob vaqtida tamoman tinchlik hosil qilish kerak, bolalarning ko`z oldida, ularning diqqatini hisobdan alahsitadigan hech narsa bo`lmasin.

